


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-iyul oylarida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 14 872,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyul
mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyul
FHI, % da




yanvar-iyul
ulushi, % da



2024- yil yanvar-iyul oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 67,7 % ga tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-iyul oylarida



2024- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 100,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,4 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2023- yilning yanvar-iyul oylarida – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,4 % (8,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,5 % (15,1 %) va quyi texnologiyalisi – 75,9 % (75,0 %) ni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-iyul oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 36,9 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,3 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,5 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,8 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 165,5 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,1 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 %) ni tashkil

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-iyul oylarida



2024-yilning yanvar-iyul oylari davomida jami sanoatda 21,1 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 16,9 % ga kamaygan), 13,8 ming tonna paxta tolasi (53,3 % ko'paygan), 21,1 ming tonna omuxta yem mahsulotlari (58,6 % ga ko'paygan) hamda 21,1 ming tonna paxta chigiti (22,0 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	13,3	21,1	7,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	25,4	21,1	-4,3
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	13,8	-4,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	4,6	7,4	-2,8

2024- yil yanvar-iyul oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 10,3 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 3,0 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 8,6 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 441,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 674,1 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 6,0 % tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 712,2 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 670,5 mlrd so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 159,9 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 489,4 mlrd so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-iyul oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 392,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 708,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 316,1 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyul oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,3 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 334,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,6 % ni, ya'ni jami 1 297,4 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 12,9 % ni tashkil etib, 1 923,7 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 626,3 mlrd. so'mga oshgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 372,3 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati bo'yicha 256,5 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, tashkil etdi.

2023-yil

119,6 %

2024-yil

65,7 %

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 8,7 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,3 mlrd. so'mga ko'payib, 10,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yil

102,2 %

2024-yil

86,7 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, yani 234,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 80,5 mlrd. so'mga ko'paygan va 315,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yil

119,5 %

2024-yil


119,5 %

2024- yil yanvar-iyul oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 575,7 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,3 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 898,3 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 919,5	3 707,5	-212
Issiqlik energiyasi, ming gkal	37,2	68,5	31,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 147,0 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	60,4	82,7	22,3
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	21,5	36,8	15,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 22,3 mlrd. so'm yoki 37,0 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,3 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.

2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 359,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 15,9 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-iyul)

